

**PENITENSIAR MUASSASALARINING DAVLAT ORGANLARI VA  
NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

*Meylimurodov Eldor Elyor o‘g‘li*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, tadqiqot ishida jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish yuzasidan fikr va mulohazalar, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kamchiliklar, muammolar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorligini ta’minlash yuzasidan ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarining hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan nazariy va amaliy muammolarning yechimlariga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** jazo, penitensiar muassalar, hamkorlik, nodavlat-notijorat davlat organlari, axloqan tarbiyalash, kasb hunar, mahkum va jazoni ijro etish tizimi.

**ANNOTATION**

The article of the research topic of the graduate thesis is that the research work includes opinions and comments on improving the cooperation of penal institutions with state bodies and non-governmental organizations, the measures and shortcomings, problems, their specific features, the implementation of punishment in this regard. The experience of advanced foreign countries in ensuring the cooperation of correctional institutions with state bodies and non-governmental organizations, as well as proposals and recommendations aimed at solving theoretical and practical problems arising in the process of cooperation of penal institutions were developed.

**Keywords:** punishment, penitentiary institutions, cooperation, non-governmental non-profit state bodies, moral education, profession, convict and punishment execution system.

Penitensiar muassasalar bu jazoni ijro etish tizimining ajralmas qismi bo‘lib, jinoyat sodir etgan shaxslarni qayta tarbiyalash va jamiyatga qaytarish uchun zarur shart-sharoitlarni taminlaydi. Ushbu vazifalar faqat davlat organlari tomonidan amalga oshirilmay, turli nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Bu hamkorlikning maqsadi asosan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning qayta tarbiyalanishi, realibilitatsiyasi va jamiyatga qaytishiga yordam berishidir.

Jazoni ijro etish muassasalari ham o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda tizimga kiruvchi tarmoq xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishdagi hamkorlik – ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, o‘zaro kelishilgan holda faoliyatning shakl va usullaridan, xizmat vakolatlaridan samarali foydalanishi bo‘lib, bunda ikki yoki undan ortiq xizmat, ya’ni boshqaruvning bir-biriga bo‘ysunmagan alohida ishtirokchilari o‘z harakatlarini muvofiqlashtirib bajaradilar.<sup>1</sup>

Jazoni ijro etish tizimi bu - sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi, qarori, shuningdek amnistiya yoki afv akti asosida jazo ijrosini ta’minlovchi, jazoni ijro etish muassasalarida mahkulmlarni axloqan tuzatish bilan shug‘ullanuvchi, jinoyatlar sodir etilishining oldini oluvchi, mahkulmlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi ichki ishlar organlari tarkibidagi bo’linmalarning faoliyatidir. Jazoni ijro etish muassasalarining boshqa davlat tuzilmalar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yishi o‘z navbatida, jazoni ijro etish muassasalaridagi barqarorlik holatini yuzaga keltirishda muhim omil bo‘lib, bunga faqatgina ishonchli va keng hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yibgina erishish mumkin bo’ladi. Jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va nodavlat-notijorat organlari bilan hamkorligi deganda- jazoni ijro etish muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan mahkulmlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida hamkorlik qilishga rozi bo’lgan kelishivi hisoblanadi. Jazoni ijro etish muassasalarida hamkorlik turli xil yo’nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Hamkorlikni ta’minlash maqsadida turli dasturlar tizimlar joriy etilishi va tatbiq etilishi kerak bo’ladi. Jumladan, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o’tayotgan mahkulmlarni axloqan tuzatish, ularni qaytadan jinoyatga qo’l urishini oldini olish, kelgusida jazo muddatini o’tab bo’lgandan so’ng o’zining mutaxassisligi bo’yicha ish bilan ta’minlanishi masalalarini inobatga olgan holda ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalg qilish, qiziqishini uyg’otish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorliklarni yo’lga qo’yish uchun tegishli shartnomalar imzolanadi.

Hamkorlik tushunchasi - aslida o‘zaro bir yoki bir nechta taraflarning aniq maqsadli vazifalarini amalga oshirish uchun kelishuv jarayonidir. Jazoni ijro etish muassasalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi vazirliklar bilan hamkorlikni amalga oshiradi: Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Mahalliy hokimliklar, Sog’liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi va boshqalar.

---

<sup>1</sup> Qodirov Q.B. O’zbekistonda penitensiar muassasalar faoliyati tarixi. Monografiya. Toshkent. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2023-B.90.

Nodavlat notijorat tashkiloti deganda — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilot hisoblanadi.<sup>2</sup> Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qlish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Jazoni ijro etish muassasalarining boshqa davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorligining ahamiyati shundaki, aynan jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalari hamkorlik olib borayotgan tashkilotlarning va bevosita jazoni ijro etish muassasasining o'zining tashabbusi bilan mahkumlarni ish bilan ta'minlash masalasi ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali jazo muddatini o'tab bo'lgandan keyin ozodlikka chiqib xalqqa foydasi tegadigan kasb egasi bo'lishini ta'minlash, mahkumlarning sog'ligi holati yuzasidan olib borilishi kerak bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish, mahkumlarni ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqa masalalar yuzasidan qilinayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va ko'lamenti kengaytirishdan iboratligi bilan ahamiyatlidir. Har bir jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni qonunga itoatkor ruhda tarbiyalash, sodir etilgan jinoyatdan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'z navbatida, amalda samarali natijalarga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Mahkumlarni to'g'ri yo'lga solishning eng asosiy va samarali usuli sifatida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarning hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishini ko'rsatishimiz mumkin. Penitensiay muassasalarining nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorligi, asosan, jazoni ijro etish muassasasidagi shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ta'lim va reabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini taqdim etish, jamiyatga qayta taylorlashdagi, faoliyatni o'z ichiga oladi. Bunday hamkorlikning asosiy maqsadlari va imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: **Huquqiy yordam:** Nodavlat tashkilotlar, masalan, huquqiy maslahat markazlari, inson huquqlari tashkilotlari, mahkumlar huquqlarini himoya qilishga yordam berishi mumkin. Ular mahkumlarning sud tizimi, shikoyat qilish va inson huquqlariga oid masalalarda maslahatlar berishadi. **Ta'lim va kasb-hunar tayyorlash:** Nodavlat tashkilotlar ta'lim va kasb-hunar o'quv dasturlarini taklif qilishi mumkin. Bu,

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1999. – № 5. – 115-m.; 2012 yil 2 maydag'i O'RQ-328sonli qonun bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2012. – № 5. – 133-m. va sh.k. qonun hujjatlari.

mahkumlarni turli kasblarga tayyorlash, ular uchun o'quv kurslari o'tkazish, o'qish imkoniyatlarini yaratish orqali jamiyatga qaytganida ularning moslashuvini osonlashtiradi. **Psixologik va ijtimoiy yordam:** Nodavlat tashkilotlar psixologik maslahatlar, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya dasturlarini tashkil etishi mumkin. Bu mahkumlarga ijtimoiy moslashish, oilaviy munosabatlarni tiklash, narkomaniya va alkogolizmga qarshi kurashishda yordam beradi. **Sog'liqni saqlash:** Nodavlat tashkilotlar jazoni ijro etish muassasalarida sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilashga ko'maklashishi mumkin. Ular bemorlarni davolash, profilaktik tekshiruvlar o'tkazish va sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilashda yordam beradi. **Reabilitatsiya va jamiyatga qayta taylorlash:** Nodavlat tashkilotlar mahkumlarni jinoiy faoliyatni tark etishga va normal hayotga qaytishga yo'naltiruvchi dasturlarni taklif qilishlari mumkin. Bu dasturlar, ularni jamiyatga qaytarish, ishga joylashtirish va ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. **Monitoring va inson huquqlarini kuzatish:** Nodavlat tashkilotlar penitensiya tizimdag'i muammolarni kuzatib borishi va noqonuniy harakatlarni aniqlashda yordam berishi mumkin. Ular jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurashish, sharoitlarni yaxshilash bo'yicha hukumatga takliflar berishadi. Bunday hamkorliklar davlat va nodavlat sektorlari o'rtaсидagi samarali va integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlashga yordam beradi, natijada jazoni ijro etish muassasalarida tizimining samaradorligi va jamiyat uchun foydali bo'lishi ta'minlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat

3.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi

4.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi

5.O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1999. – № 5. – 115-m.; 2012 yil 2 maydagi O'RQ-328sonli qonun bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2012. – № 5. – 133-m. va sh.k. qonun hujjatlari.

9.O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 29 sentyabrdagi “Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida”gi qonuni

10.O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 14 martdagi ‘Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-530 qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019 y., 03/19/530/2769-son.